

TABIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

N.Sharipova

TDTU Qo`qon filiali , katta o`qituvchi, PhD

Valijonova Mushtariy Nodirbek qizi

TDTU Qo`qon filiali talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy boyliklardan samarali foydalanish bo'yicha ko'riladigan chora tadbirlar tavsif qilingan.

Kalit so'zlar. Chiqindilarni qayta ishlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tabiiy suvdan tejamkorlik bilan foydalanish va bunda xorijiy uslublardan foydalanish.

KIRISH.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlar jahon bozoriga chiqaradigan o'z tovar va xizmatlari bilan mashhurdir: Shveysariya bank xizmatlari, yapon avtomobillari, Italiya kiyim-kechagi, Singapur moliyaviy xizmatlari. Boshqacha qilib aytganda, muayyan mamlakatlar (yoki jamiyatlar) muayyan tovarlar ishlab chiqarishda yoki xizmatlarni ko'rsatishda boshqalarga nisbatan afzalroqdir. XIX boshlarida yuzaga kelgan nisbiy afzalliklar nazariyasi asoschisi, ingliz iqtisodchisi Devid Rikardo so'z yuritgan xalqaro mehnat taqsimotidagi nisbiy va mutlaq afzalliklar – bular anchayin hissiy anglashiladigan va muomalada ko'p qo'llaniladigan tushunchalardir.

Savol tug'ilishi tabiiy: O'zbekistonning raqobat afzalligi nimada va uni kim belgilaydi? Bu masalada davlatning funksiyasi nimalardan iborat?

Bu borada madaniy antropologlar juda qiziqarli izoh beradi. Masalan, avtomobillar ishlab chiqarish va guruch ishlab chiqarish – bir-biriga o'xshash jarayon. Unisi ham, bunisi ham yuqori darajada kooperatsiya (jamoada ishlash, jamoaviylik)ni va muayyan algoritmi – qoidalar va harakatlar ketma-ketligiga rioya etishni talab qiladi. “Guruch nazariya”sini ilgari suruvchi olimlar

ta'kidlashicha, Sharqiy Osiyoda avtomobilsozlik dehqonlarga avtomobil ishlab chiqarish ham guruch yetishtirishdek gapligini, faqat ketma-ketlik boshqacharoq qurilganligini tushuntirganlaridan so'ng muvaffaqiyatga erisha boshlagan.

Bu tushuntirish qiziqarli ko'rinsa-da, bizning raqobat afzalligimizni madaniy antropologiya yoki tarixiy an'analar prizmasi orqali izlash unchalik samarali mashg'ulot emas. Buning sabablaridan biri – “guruch nazariya”si Yaponiya va Koreya avtomobillarni muvaffaqiyatli ishlab chiqara boshlaganidan keyin yuzaga kelganligidir. Sabab-oqibat aloqasini inkor qiluvchi qarama-qarshi misollarni topish qiyin emas: umuman guruch yetishtirmagan avtomobilsozlik mamlakatlarini, guruch yetishtirilsa ham, avtomobil ishlab chiqarilmaydigan qator mamlakatlarni sanab o'tish mumkin.

Demak, mamlakat o'zidagi mavjud tabiiy resurs manbalaridan oxirgi tomchisigacha samarali va unumli foydalanishi zarur. Iqtisodiyotni rivojlantirishda mahsulotni to'g'ridan to'g'ri sotish emas uni qayta va qayta ishlab yangiliklar yaratib oldi-sotdi qilish ko'proq foyda keltiradi. Masalan, bizda qishloq xo'jaligi uchun yerlar juda yaxshi bundan oxirigicha samarali foydalanish kerak, ya'ni bizda paxtadan mato tayyor bo'lishigacha bo'lgan jarayon mavjud xolos. Lekin buni kiyim holatiga keltirib, eksport orqali jahon bozoriga olib chiqish orqali sotish davlat iqtisodiyotiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Inson hayoti va faoliyati davomida tabiatdan foydalanadigan barcha Turdagi tabiat ne'matlariga tabiiy resurslar deyiladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

CHIQUINDILAR XAVFSIZ QAYTA ISHLANADI

Saylovoldi dasturiy maqsadlaridan biri – sanoat korxonalarini va qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali atrof-muhit musaffoligini ta'minlash hisoblanadi. Buning naqadar dolzarb ekanini quyidagi raqamlarda ham yaqqol ko'rinadi: mamlakatimizda sanoat korxonalarida yiliga o'rtacha 115-120 million tonna sanoat chiqindilari hosil bo'lmoqda va hozirgi vaqtda poligonlarida 3.5 milliard tonnaga yaqin ayni shu turdagi chiqindilar yig'ilib qolgan.

Chiqindilar bog'liq muammoni yechishning xorijda sinalgan usul va mexanizmlari bor. Asosiysi – chiqindini qayta ishlash. Bu esa chiqindini saralash masalasiga borib taqaladi.

So'nggi yillarda sohani tartibga solishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida chiqindi tashlanadigan joylar ancha tartibga solindi. Lekin hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar bisyor. Misol uchun, Yevropada bu masala bilan o'tgan asrning 80-yillaridan jiddiy shug'ullanishga kirishilgan. Germaniya bugun maishiy chiqindilarning 70 foizini qayta ishlaydi. Yaponiyada esa bu ko'rsatkich 90 foizni o'z ichiga oladi.

Bu davlatlarda ikkilamchi qayta ishlash sanoati 10 lab milliard dollar moliya vositalari aylanmasiga ega bo'lgan katta biznesga aylanib ulgurgan. Xitoy importi ham chetdan keltirilayotgan chiqindi hajmi oshib borayotgani ham shundan.

Chiqindilar bilan bog'liq muammoga bir yechim bir martalik ishlatiladigan plastik va boshqa idishlardan foydalanishdan bosqichma-bosqich voz kechishga o'tish.

Chiqindilar atrof-muhitni ifloslaydiga bu bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishda ekologiyachilar tomonidan berilgan taklif bilan "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi ya'ni biror korxonada faoliyati tabiatga zarar yetkazayotimi, demak u kompensatsiya to'lashi kerak.

TABIY MUVOZANATNING NOYOB ZANJIRI

Bioxilma-xillik ekotizm muvozanati ona tabiatdagi noyob barqarorlikni saqlashning muhim omili hisoblanadi. Tabiatimiz biologik xilma-xilligi boy bo'lib o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining 27 mingdan ortiq turlarini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ko'plab noyob turlar va ekologik tizimlar yo'q bo'lib ketish xavfi ostida.

Bu bo'yicha ham saylovoldi dasturlarida bunday muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etilmoqda. Dasturga ko'ra, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari va suvli akvatoriyasida ularning maqsadli vazifalariga zid bo'lgan har qanday faoliyatga chek qo'yiladi. Kamyob va keskin kamayish xavfi ostida turgan hayvonlarni ovlash va o'simlik turlarini tabiatdan ajratib olishga 10 yillik

moratoriy e'lon qilinadi va shuningdek o'rmonlarni muhofaza qilish, qayta tiklash va hududning o'rmon bilan qoplanganlik darajasini 30 % ga yetkazish choralari ko'riladi.

SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH

Aholining yildan-yilga ko'payib borayotgani, yangi sanoat korxonalari va ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushirilayotgani, turar joylar kengayayotgani suvga bo'lgan tabiiy ehtiyojning ham muvofiq ravishda o'sib borishini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda, aholining barcha qatlamlarida, yoshu keksada suvdan oqilona foydalanish ko'nikmasini hosil qilish, uni isrof qilmaslik, har qatra suvda kelajak avlodlar haqi borligini chuqur anglash, uni faqatgina mablag' evaziga sotib olinadigan moddiy resurs sifatida qaramaslik borasida samarali tizim yaratilishi kerak. Buni avvalo, aholini har bir vakiliga tatbiq qilish bo'yicha barcha chora tadbirlar ko'rilishi zarur.

XULOSA

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ya'ni birinchi navbatda o'zimiz ifloslantirayotgan tabiatni asrashimiz, turli chiqindilarni tashlab yuborish o'rniga ularni qayta ishlash orqali saralashga va qo'shimcha foydaga erishishdir. Ekoturizmni saqlash va rivojlantirish orqali xorijiy investitsilarni jalb qilish davlatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirish.

Shuningdek, asosiy muammolardan biri – suv. Suv resurslari taqsimotida qat'iy limit tizimi, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalar to'liq joriy qilinmagani ham suv resurslaridan oqilona foydalanishga to'siq bo'lib kelyapti.

Xorijiy mutaxassislarining kuzatishlariga ko'ra yana 20- yildan keyin insoniyat ichimlik suvi ta'minotida katta muammolarga duch kelishi mumkin. Hozirda dunyoda ro'y berayotgan ichimlik suvi muammolari bu taxminlarda asos borligini ko'rsatmoqda.

Kundalik faoliyatimiz davomida yuqorida sanab o'tilgan ehtiyojlar uchun toza ichimlik suvi emas, qayta ishlangan ikkilamchi suv resurslari jalb qilinadigan bo'lsa, hozirda iste'mol qilinayotgan umumiy toza ichimlik suvi miqdorini qariyb 20%ga

tejavash imkoniga ega bo'lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://ecouz.uz/news-page/view/130>
2. [https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/ekologiya/tabiiy-resurslar-va-
ulardan-foydalanish](https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/ekologiya/tabiiy-resurslar-va-
ulardan-foydalanish)
3. https://strategy.uz/index.php?category=liberalizaciya_ekonomiki&lang=uz
4. [https://yuz.uz/uz/news/harakatlar-strategiyasidan--taraqqiyot--strategiyasi-
sari](https://yuz.uz/uz/news/harakatlar-strategiyasidan--taraqqiyot--strategiyasi-
sari)
5. <https://kun.uz/uz/96351238>
6. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. [O'zbekistonda pedagogik bilim
yurtlarining shakllanish jarayoni \(1945-1965 yillar\)/ Vol. 4 No. 1 \(2023\): SCIENCE
PROMOTION Confrence](#)
7. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O'zbekistonda xorijiy tillarning
o'qitilish tarixi/ [Vol. 4 No. 1 \(2023\): SCIENCE PROMOTION Confrence](#)
8. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80 yillarida
Farg'ona vodiysi o'qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari/ [Vol. 2
No. 16 \(2023\): Educational Research in Universal Sciences \(ERUS\)](#)
9. Sharipova Nargiza, Ph.D. History of Teacher Training System in Uzbekistan
and Changes in it./Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-
4846 Volume22 (Dec-2023) Available online: <https://mjssh.academicjournal.io> 63-
68
10. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O'ZBEKISTON PEDAGOGIK
OLIV TA'LIMINING RIVOJLANISH / [SOHIBQIRON YULDUZI. 2023 yil 4
son-256 bet](#)